

“RO‘YXATGA OLINGAN”

1052 - son

2023 yil “10” iyul

“TURONBANK” ATB
AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM

(yangi tahrirda)

«TASDIQLANGAN»

Bank aksiyadorlari

Umumi yig‘ilishining

2023 yil “26” iyundagi

AS-1/11-sonli qaroriga asosan

Umumi yig‘ilish raisi



F.X. Malikov

Toshkent – 2023-yil

-
- 1-bob. Umumiy qoidalar**
 - 2-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlari**
 - 3-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi**
 - 4-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish shartlari va tartibi**
 - 5-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik**
 - 6-bob. Sanoq komissiyasi**
 - 7-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi**
 - 8-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish**
 - 9-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi**
 - 10-bob. Masofadan turib Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibi**
 - 11-bob. Yakuniy qoidalar**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki (bundan buyon matnda – "Bank") aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini tayyorlash, ishini tashkil etish va qaror qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Nizom «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya yig'ilishining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Korporativ boshqaruv Kodeksi», IHTTning «Korporativ boshqaruv prinsiplari»ga muvofiq ishlab chiqilgan davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. "Turonbank" ATB aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Bank boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

1.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi odatda moliyaviy yil yakunlanganidan keyin 6 oy ichida, biroq joriy yilning 30-iyunidan kechiktirmay o'tkaziladi.

2-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlari

2.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Bank Ustavida belgilangan masalalar kiradi.

2.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yig'ilish kun tartibiga kiritilmagan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek uni o'tkazish davomida kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

3-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi

3.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantiriladigan bank aksiyadorlari reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan, bankning oddiy va imtiyozli aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga egadirlar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida to'g'risidagi Qonunga muvofiq bunday kun tartibining har bir tegishli masalasi bo'yicha qaror qabul qilish uchun ovoz beruvchi deb tan olingan Bank aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlarga beriladi.

3.2. Ishtirok etish huquqi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibi bo'yicha materiallarni olish va materiallardan foydalana olish, kun tartibidagi masalalar bo'yicha savollar berish va nutq so'zlash huquqini anglatadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi, aksiyalarining turidan qat'i nazar, bankning barcha aksiyadorlariga tegishli.

3.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqi kun tartibidagi har bir alohida band bo'yicha ovoz beruvchi aksiyalar egalarigagina tegishli. Bankning barcha oddiy aksiyalari ovoz beruvchi aksiyalardir. Bank imtiyozli aksiyalarining ovoz

beruvchi aksiyalarga taalluqli ekanligi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va Bank ustaviga muvofiq belgilanadi.

3.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish yoki ishtirok etish va ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Bank aksiyadorlari reestri ma'lumotlari asosida tuziladi.

3.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Vakilga berilgan ishonchnomada vakilga faqat ishtirok etish yoki ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha ishtirok etish yoki ishtirok etish va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish uchun berilgan vakolatlar to'g'risida aniq ko'rsatma bo'lishi kerak.

3.6. Bank aksiyadorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yuzma-yuz, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib, konferens-aloqa (virtual konferensiya) yoki Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining barcha aksiyadorlariga bir-birlarini eshitish va o'zaro suhbatlashish imkonini beradigan boshqa aloqa vositalari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

3.7. Aksiyadorlar Kuzatuv Kengashi a'zolarini ilgari surish va saylash, masalalarni kun tartibiga kiritish to'g'risidagi takliflarni taqdim etish va uning korporativ boshqaruvini takomillashtirish maqsadida ishonchnoma talab qilmasdan bevosita Bank bilan muhokamalar o'tkazishda hamkorlik qilishi va o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi mumkin.

3.8. Alovida holda aksiyalarning umumiy miqdoriga nisbatan kichik aksiyalar paketlariga egalik qilishlari mumkin bo'lgan Bank aksiyadorlari, shu jumladan minoritar aksiyadorlar ovoz berish paytida qo'shma nuqtayi nazarni shakllantirish uchun aksiyadorlik kelishuvini tuzishga haqlidirlar, bu ularga birgalikda harakat qilishga imkon beradi va shu bilan ularni amalda ko'pchilikka yoki hech bo'lmaganda aksiyadorlarning eng yirik yagona blokiga aylantiradi.

4-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish shartlari va tartibi

4.1. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan o'z tashabbusi bilan yoki aksiyadorlar va qonun hujjalarda nazarda tutilgan shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi. Kuzatuv Kengashining qarori va aksiyadorlarning bo'lajak umumiy yig'ilishi kun tartibini shakllantirish Kuzatuv Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Kuzatuv Kengashining yuzma-yuz yig'ilishida qabul qilinishi kerak.

4.2. Umumiy yig'ilishning kun tartibi Kuzatuv Kengashi tomonidan mustaqil ravishda va/yoki aksiyadorlarning qonun hujjalariga va Ustavga muvofiq taqdim etilgan taklifiga binoan tuziladi.

4.3. Ovoz beruvchi aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga ega bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador) moliyaviy yil tugaganidan keyin 92 (to'qson ikki) kalender kundan kechiktirmay yillik Umumiy yig'ilish kun tartibiga takliflar kiritish va Kuzatuv Kengashiga saylanish uchun tegishli organ miqdoriy tarkibidan oshmaydigan miqdorda nomzodlarni ilgari surish huquqiga ega, Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlarni ilgari surish bundan mustasno (- ilova).

4.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala uni shakllantirish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlar (aksiyador)ning ismi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning miqdori va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda taqdim etiladi.

4.5. Bank Kuzatuv Kengashiga nomzodlarni ilgari surish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi ko'rsatgan taqdirda, nomzodning nomi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ilgari surayotgan aksiyadorlarning ismlari (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

4.6. Bankning Kuzatuv Kengashi kelib tushgan takliflarni ushbu bobning 4.3-bandida belgilangan muddat tugaganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ko'rib chiqishi, ularni aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibiga kiritish yoki kun tartibiga kiritishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masala, shuningdek ilgari surilgan nomzodlar bank Kuzatuv Kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

4.6.1. aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan ushbu bobning 4.3- va 4.4.-bandlarida belgilangan muddatlarga rioya qilmaslik;

4.6.2. aksiyadorlar (aksiyador) bankning ushbu bobning 4.3-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalari egalari emas;

4.6.3. ushbu bobning 4.4-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmagan taqdirda;

4.6.4. takliflarning "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga hamda Bank Ustaviga mos kelmasligi.

4.7. Bank Kuzatuv Kengashining masalani aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritishni yoki nomzodni bank Kuzatuv Kengashiga saylanish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masala yoki takrif kiritgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan boshlab ko'pi bilan uch ish kuni ichida yuboriladi.

4.8. Bank Kuzatuv Kengashining masalani aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritishni yoki nomzodni bank Kuzatuv Kengashiga saylanish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

4.9. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishidan o'n kun oldin yo'l qo'yiladi va bu haqda bank Kuzatuv Kengashining tegishli qarori chiqariladi, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar haqida aksiyadorlar majburiy tartibda xabardor qilinadi, bu haqda Korporativ axborot yagona portalida, Bank rasmiy veb-saytida hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

4.10. Aksiyadorlar (aksiyador) aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bank Kuzatuv Kengashiga saylash uchun o'zlarini tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

4.11. Kuzatuv Kengashi Qonun va Ustav talablariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risida xabarnoma tayyorlanishini ta'minlaydi, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma Korporativ axborot yagona portalida, bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali kamida yigirma bir kun oldin, lekin aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan kundan ko'pi bilan o'ttiz kun oldin yuboriladi (____-ilova).

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi

4.12. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan, uning o'z tashabbusiga ko'ra, yozma so'rov taqdim etilgan sanaga Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning yozma so'rovi asosida o'tkaziladi (— ilova).

4.13. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra chaqirish Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi yozma talabnomasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan amalgalga oshiriladi.

4.14. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabnomada yig'ilish kun tartibiga kiritiladigan masalalar ularni kiritishga undagan sabablar ko'rsatilgan holda tavsiflanishi kerak.

4.15. Bank Kuzatuv Kengashi bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi masalalarga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

4.16. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnomasi aksiyadordan (aksiyadorlardan) kelib tushgan taqdirda, bu talabnomada umumiyligi yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilishi shart.

4.17. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnomasi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs(lar) tomonidan imzolanadi.

4.18. Bankning ovoz beruvchi aksiyalari kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnomasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida Bank Kuzatuv Kengashi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish yoki uni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

4.19. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

4.19.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni talab qilgan aksiyador (aksiyadorlar) bank ovoz beruvchi aksiyalarining ushbu bobning 3.9-bandida nazarda tutilgan miqdoriga ega emas;

4.19.2. kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalarning hech biri Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi vakolatiga kirmaydi;

4.19.3. kun tartibiga kiritish uchun taklif etilayotgan masala "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga javob bermaydi.

4.20. Bank Kuzatuv Kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risidagi asosli qaror yig'ilishni chaqirishni talab qilgan shaxslarga u qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

4.21. Bank Kuzatuv Kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

5-bob. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik

5.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarorni tayyorlash va qabul qilishda Bank Kuzatuv Kengashi quyidagilarni belgilaydi:

5.1.1. Umumiyligi yig'ilishni o'tkaziladigan sana, vaqt va joyi;

5.1.2. Umumiyligi yig'ilish kun tartibi;

5.1.3. aksiyadorlarning xabardor qilish va Umumiyligi yig'ilishni o'tkazish uchun bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasi;

5.1.4. aksiyadorlarning va davlat vakilini Umumiyligi yig'ilishni o'tkazish to'g'risida xabardor qilish tartibi;

5.1.5. Umumiyligi yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish uchun aksiyadorlar va davlat vakillariga taqdim etiladigan ma'lumotlar (materiallar) ro'yxati;

5.1.6. ovoz berish byulletenining shakli va matni;

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda:

5.1.7. ovoz berish boshlanishi vaqtida, ovoz berish va Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish tartibi, shuningdek yig'ilishni o'tkazish maqsadida, shu jumladan foydalanuvchi uchun ko'rsatmalarini olishda foydalaniladigan elektron platformanining Internet manzili ko'rsatilgan holda;

5.1.8. Yig'ilish raisi, kotibi va sanoq komissiyasi a'zolari;

5.1.9. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish tartibi (reglamenti), unda yig'ilishning boshlanishi va kutilayotgan tugash vaqtida, nutqlar, muhokamalar va tanaffuslar davomiyligi, kun tartibidagi masalalar ketma-ketligi, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning nomlari va lavozimlari, uning natijalarini e'lon qilish tartibi nazarda tutiladi.

5.2. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishidan oldin aksiyadorlarga qonun hujjalarda belgilangan tartibda kun tartibi, shu jumladan umumiyligi yig'ilish kun tartibi bo'yicha Bank Kuzatuv Kengashining nuqtayi nazari to'g'risida zarur ma'lumotlar taqdim etiladi.

5.3. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibi masalalari bo'yicha materiallarda ushbu masalalari bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan hajmdagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

5.4. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga bank Kuzatuv Kengashini saylash (Bank Kuzatuv Kengashining yangi a'zosini saylash) masalasi kiritilgan bo'lsa, materiallarda Bank Kuzatuv Kengashiga taklif etilayotgan nomzod qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki u bank Kengashining mustaqil a'zoligiga nomzod yoki nomzod emasligi ko'rsatilishi kerak. Agar Bank Kuzatuv Kengashiga nomzod aksiyador yoki bankning aksiyadori bo'lmagan jismoniy shaxs bo'lsa, unda ushbu ma'lumotlar aksiyadorlar ro'yxati shakllantiriladigan sanaga aksiyadorning bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik huquqi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan holda materiallarda ko'rsatilishi kerak.

5.5. Bankning korporativ maslahatchisi o'z faoliyati doirasida bank aksiyadorlari yig'ilishini tayyorlash va o'tkazishni nazorat qiladi, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga oid materiallarning shakllanishini ta'minlaydi va bank aksiyadorlari ulardan foydalanishi imkoniyati ta'minlanishini nazorat qiladi.

5.6. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibiga oid materiallar aksiyadorlar tanishib chiqishi uchun Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 10 (o'n) kun oldin Bank boshqaruvi joylashgan joyda tayyorlab qo'yilishi va

ulardan foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lishi kerak, aksiyadorning so'rovi mavjud bo'lganda esa so'rov kelib tushgan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida unga yuborilishi lozim.

5.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish vaqtida, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini yuzma-yuz o'tkazish uchun binolarni tanlashda Bank Boshqaruvi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi taxmin qilinayotgan barcha aksiyadorlar sig'ishi hisobga olinishi kerak, aksiyadorlar kun tartibining muhokama qilinayotgan masalalari bo'yicha so'zga chiqishlari va savollar berishlari uchun sharoit yaratish bo'yicha choralar ko'riliishi, shuningdek, masofadan turib ishtirok etishni istagan aksiyadorlarga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun cheklangan imkoniyat beruvchi virtual konferensiya uchun sharoit yaratilishi lozim.

5.8. Korporativ maslahatchi aksiyadorlarning Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishlari uchun cheklangan kirish imkoniyatini beruvchi virtual konferensiya o'z vaqtida yaratilishini, unga ulanish uchun aksiyadorlarning elektron pochta manziliga kirish paroli bilan birga tegishli havola yuborilishini ta'minlaydi.

5.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishni rejalashtirayotgan aksiyador bu haqda korporativ maslahatchini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan kundan kamida uch kun oldin xabardor qilishi shart, korporativ maslahatchi haqidagi axborot va bog'lanish ma'lumotlari bankning rasmiy veb-saytida oshkor qilinadi.

5.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyadorning texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishiga quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

5.10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga faqat Bankda ishlatiladigan maxsus dasturlardan foydalangan holda va faqat korporativ maslahatchi tomonidan bank aksiyadorining korporativ maslahatchiga ilgari taqdim etgan elektron pochta manziliga yuborilgan havola bo'yicha, shuningdek faqat ushbu elektron pochta manzillaridan foydalangan holda ulanish;

5.10.2. virtual konferensiyaga ulanishning tezligi va sifati mavjudligi, bu aksiyadorni identifikatsiyalash va uning masalalarni muhokama qilishda real vaqt rejimida ishtirok etishini ta'minlash imkonini beradi;

5.10.3. axborot xavfsizligini ta'minlash, ya'ni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi jarayonining maxfiyligini, muhokama paytida aytilan ma'lumotlarni himoya qilish va bankda himoyalangan ma'lumotlarni oshkor qilish imkoniyatini istisno qiladigan boshqa sharoitlarni ta'minlaydigan shartlarning mavjudligi.

6-bob. Sanoq komissiyasi

6.1. Aksiyadorlarni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish, ovoz berish byulletenlarini tarqatish, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovozlarni sanash uchun Bank Kuzatuv Kengashi sanoq komissiyasini tuzadi. Komissianing shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

6.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik jarayonida sanoq komissiyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

6.2.1. aksiyadorlarning reestri asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxatini va ro'yxatga olish varaqasini shakllantiradi;

6.2.2. umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatdan o'tkazadi;

6.2.3. ovoz berish byulletenlarini va boshqa umumiy materiallarni taqdim etadi, berilgan byulletenlarning hisobini yuritadi;

6.2.4. ishonchnomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlarning yozuvlarini yuritadi;

6.2.5. ovoz berishga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi;

6.2.6. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kvorumi mavjudligini belgilaydi;

6.2.7. belgilangan ovoz berish tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqini ta'minlaydi;

6.2.8. Sanoq komissiyasi ovozlarni hisoblaydi va ovoz berish natijalarini umumlashtiradi, yaroqsiz byulletenlarni va ulardagi ovozlar sonini aniqlaydi;

6.2.9. ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomma tuzadi va ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi materiallariga qo'shish uchun taqdim etadi;

6.2.10. Ovoz berish natijalari bo'yicha bayonnomalarni qayd qiladi va ovoz berish byulletenlarini arxivga topshiradi.

6.3. Sanoq komissiyasi kamida uch kishini o'z ichiga olishi kerak. Sanoq komissiyasiga Bank Kuzatuv Kengashi a'zolari, Bank boshqaruvi a'zolari, shuningdek ushbu lavozimlarga ilgari surilgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

7-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish

7.1. Sanoq komissiyasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kelgan aksiyadorlarni (aksiyadorlarning vakillarini) uning ochilishidan oldin ro'yxatga oladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumini hisoblaydi.

7.2. Yig'ilish ishtirokchilarini ro'yxatga olishning boshlanish vaqtini 1 soat oldin, ro'yxatga olish tugashi esa yig'ilish ishtirokchilarining ovozlarini hisoblash va uning kvorumi mavjudligini aniqlash uchun yig'ilish boshlanishidan 5 daqiqa oldin qilib belgilanadi.

7.3. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish vakolatini tasdiqlovchi ishonchnomani taqdim etishi shart.

7.4. Aksiyadorlarni ro'yxatga olish varaqasi sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan tikilgan, raqamlangan va imzolangan bo'lishi kerak (sanoq komissiyasi funksiyalarini bajarish uchun yuridik shaxs shartnomaga asosida jalb qilingan taqdirda, ro'yxatga olish varaqasi yuridik shaxsning rahbari tomonidan imzolanishi va muhri bilan tasdiqlanishi kerak).

7.5. Aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilingan sanadagi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar reestridan shakllantirilgan aksiyadorlarni ro'yxatga olish varaqasiga ko'ra amalga oshiriladi.

7.6. Vakil bir yoki bir nechta aksiyadorlar bo'yicha ishonchnoma bergenida, aksiyadorning familiyasi, ismi-sharifi, vakilning imzosi, ishonchomaning raqami va sanasi ro'yxatga olish varaqasida, vakil kimning nomidan ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha aksiyadorning familiyasi qarshisida qayd etiladi.

7.7. Yig'ilish ishtirokchilari, aksiyadorlar va aksiyadorlarning vakillari ro'yxatga olish varaqasiga imzo chekadilar, ovoz beruvchi aksiyalar soni ko'rsatilgan ovoz berish byulletenlarini oladilar.

7.8. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun kelganlarni ro'yxatga olish aksiyadorning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat, vakilga nisbatan esa

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

7.9. Umumiy yig'ilish ochilgandan keyin kelgan va AUY ro'yxatdan o'tish varag'ida ro'yxatdan o'tmagan aksiyadorga AUY raisiga aksiyadorning kech kelganligi to'g'risida xabar berilgandan keyin AUYda ishtirok etishga ruxsat beriladi va rais bu haqda butun AUYga e'lon qiladi.

Shu bilan birga, AUYda ro'yxatdan o'tishga kechikkan aksiyador ushbu yig'ilishda ovoz berish huquqiga ega emas va bu holat sanoq komissiyasining alohida bayonnomasi bilan rasmiylashtirilishi kerak.

7.10. Agar yig'ilish ishtirokchisi bir yoki bir nechta aksiyadolarning manfaatlarini himoya qilish uchun ishonchnoma taqdim etsa, unga o'zi vakili bo'lган har bir aksiyador (aksiyadolar) uchun byulleten beriladi va ro'yxatga olish varaqasida u vakili bo'lган aksiyador nomi ro'parasiga «_____da _____ bo'yicha berilgan ishonchnomaga ko'ra ovoz beruvchi aksiyalar (miqdori)» yozuvi qayd etiladi va vakilning familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatiladi.

7.11. Ishonchnoma vakil qilgan shaxs va vakil to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari yoki identifikatsiya ID-kartasi ma'lumotlari)ni o'z ichiga olishi, unda AUYda ishtirok etish yoki kun tartibidagi masalalar bo'yicha ishtirok etish va ovoz berish huquqi berilgani, muayyan vaqt uchun har qanday AUYga yoki faqat ma'lum bir AUYga, takroriy AUYga nisbatan ishonchnomaning muayyan davr davomida amal qilish muddati aniq belgilanishi kerak.

7.12. Ishonchnomada vakil kun tartibidagi har bir band bo'yicha qanday ovoz berishi kerakligi haqida ko'rsatmalar bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxs bo'lган aksiyador nomidan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi va yuridik shaxs nomidan ushbu shaxsnинг rahbari tomonidan imzolanishi hamda yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

7.13. Chet ellik aksiyador tomonidan berilgan ishonchnomada, agar O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlangan apostil mavjud bo'lsa, ishonchnoma bergen shaxsning identifikatsiya ma'lumotlari, ishonchnomaning vakolatlari va amal qilish muddati ko'rsatilishi kerak.

7.14. Vakilning vakolatlarini korporativ veb-saytga havola yoki yuridik shaxs nomidan vakillik vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjat bilan rasmiy xatlar asosida tasdiqlashga ruxsat beriladi.

7.15. Aksiyador istalgan vaqtida o'z vakilini almashtirishi yoki aksiyadolarning umumiy yig'ilishida shaxsan ishtirok etishi mumkin.

7.16. Bunday holda, aksiyadorni yoki uning vakilini almashtirish AUYning ro'yxatga olish varaqasida ro'yxatdan o'tishdan oldin amalga oshirilishi mumkin.

7.17. Aksiyadolarning vakili o'z aksiyador(lar)i bilan kelishilgan holda aksiyadolarning umumiy yig'ilishida qatnashadi va kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berishi mumkin (ovozi beradi). Shu bilan birga, aksiyadorning o'zi bilan kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini muvofiqlashtirish aksiyadorning vakili tomonidan ular uchun qulay shaklda amalga oshiriladi. Aksiyador va uning vakili o'tasidagi munosabatlar, shu jumladan aksiyadolarning umumiy yig'ilishi kun tartibi masalari bo'yicha ovoz berish tartibini tasdiqlash Bank ishtirokisiz va qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

7.18. Ro'yxatdan o'tmagan aksiyador (aksiyadorning vakili) kvorumni belgilashda hisobga olinmaydi va ovoz berishda ishtirok etishga haqli emas.

Aksiyadolarning umumiy yig'ilishini o'tkazish

7.19. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

7.20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, agar kvorum bo'lsa, e'lon qilingan vaqtida ochiladi.

7.21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi faqat e'lon qilingan vaqtida ochilishi mumkin, barcha aksiyadorlar (ularning vakillari) to'liq ro'yxatdan o'tgan, xabardor qilingan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ochilish vaqtini o'zgartirishga qarshi bo'Imagan holatlar bundan mustasno.

7.22. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash, sanoq komissiyasining tarkibi, Prezidium a'zolari va Prezidium kotibini saylash to'g'risida ovoz berishda har bir aksiyador bitta ovozga ega va qaror ko'pchilik ovoz bilan qo'l ko'targan holda ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

7.23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank Kuzatuv Kengashi raisi, uzrli sabablarga ko'ra uning ishtirok etishi mumkin bo'Imagan taqdirda esa umumiy yig'ilishda tanlangan Bank Kuzatuv Kengashi a'zolaridan biri boshqaradi (raislik qiladi). Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisiga audio va video yozuvlar yozish va aksiyadorlar yig'ilishini Internet orqali translyasiya qilish huquqi beriladi.

7.24. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Raisi yig'ilish o'tkazilishini ta'minlaydigan yig'ilish Prezidiumiga rahbarlik qiladi va buning uchun u o'z vazifalarini tegishli tartibda bajarish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi.

7.25. Umumiy yig'ilish raisi yig'ilishning borishiga rahbarlik qiladi, umumiy yig'ilish ishchi organlarining ishini muvofiqlashtiradi, uning reglament asosida o'tkazilishini ta'minlaydi, yig'ilish o'tkazilishi va ovoz berish paytda tushuntirishlar beradi, umumiy yig'ilish o'tkazilishini nazorat qiladi va tartibni ta'minlaydi.

7.26. Umumiy yig'ilish raisi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi va qarorini imzolaydi.

7.27. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida unga raislik qiluvchi ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha munozaralarni tugatish to'g'risidagi taklifni ovozga qo'yishga haqli.

7.28. AUYda ishtirok etayotgan bankning har qanday aksiyadori AUY kun tartibidagi masalalar bo'yicha savollar berish va so'zga chiqish huquqiga ega.

7.29. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga raislik qiluvchi kun tartibidagi masalani muhokama qilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar so'zga chiqishlariga qarshilik ko'rsatishga haqli emas, bunday nutqlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qoidalarining buzilishiga olib keladigan yoki ushbu masala bo'yicha munozaralar yakunlangan hollar bundan mustasno.

7.30. Umumiy yig'ilish davomida yuzaga keladigan joriy masalalar, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha asosiy prinsip, ya'ni har bir ishtirokchining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha belgilangan doirada va faqat bir marta so'zga chiqish huquqidан foydalanishi mumkinligiga asoslanib, faqat raislik qiluvchi tomonidan hal etiladi.

7.31. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishni istaganlar umumiy yig'ilish kotibiga umumiy yig'ilishda muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda yozma ravishda murojaat qilishadi, AUY masofadan turib olib borilishida esa kotibga axborot texnologiyalari yordamida savol bilan murojaat qilishadi.

7.32. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Kuzatuv Kengashi va Bank

Boshqaruvi kompensatsiya va rag'batlantiruvchi to'lovlar miqdori, shuningdek sof foydani taqsimlash tartibi va dividendlarni to'lash uchun ajratilgan mablag'lar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq oshkor qiladi va bunda bank tomonidan qabul qilingan "dividend" siyosatiga asoslanadi (zarur hollarda bankni rivojlantirish uchun yo'nalitiriladigan sof foya bo'yicha iqtisodiy asoslar va tushuntirishlar beriladi).

7.33. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'z ishidagi tanaffus va ishlash muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

7.34. Kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar ko'rib chiqilib, ular bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng, sanoq komissiyasi AUYning ovoz berish natijalarini e'lon qiladi va tasdiqlaydi, shundan so'ng AUYga raislik qiluvchi AUYning ishi yakunlanganligini e'lon qiladi.

7.35. Kun tartibidagi barcha masalalar ko'rib chiqilganidan va ular bo'yicha qarorlar qabul qilinganidan keyingina Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yopiq deb e'lon qilinishi mumkin.

7.36. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi uchun kvorum bo'lmagan taqdirda, aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

7.37. Agar o'tkazilmagan aksiyadorlar yig'ilishi o'rniga chaqirilgan aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olish tugallangan vaqtida bankning muomaladagi ovoz beruvchi aksiyalari soni qirq foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, Aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig'ilishi vakolatli hisoblanadi.

7.38. Aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma ushbu Nizomning 5.6- va 5.7.-bandlarida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

7.39. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sana kvorum bo'lmaganligi sababli yigirma kundan kam muddatga kechiktirilgan taqdirda, umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar aytilgan vaqtida o'tkazilmagan umumiyligi yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq belgilanadi.

8-bob. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish

8.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish "bankning bir ovoz beruvchi aksiyasi – bir ovoz" prinsipi asosida amalga oshiriladi, bank Kuzatuv Kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berish o'tkazilishi, AUY reglamenti, sanoq komissiyasi va AUY prezidiumi tarkibini tadiqlash hollari bundan mustasno.

8.2. Yig'ilishda ovoz berishda faqat oddiy aksiyalar egalari qatnashadilar. Imtiyozli aksiyalar egalari qonun hujjalarda belgilangan tartibda faqat bank Ustavida ko'rsatilgan hollarda ovoz berish huquqiga ega.

8.3. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish ovoz berish byulletenlari yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi, reglament va sanoq komissiyasi tarkibi tasdiqlanishi bundan mustasno.

8.4. Ovoz berishda saylovchi tomonidan ovoz berishning mumkin bo'lgan variantlaridan faqat bittasi qoldirilgan, ushbu masala bo'yicha berilgan ovozlarga hisobga olinadi. Ushbu talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari

haqiqiy emas, deb tan olinadi va undagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

8.5. Agar ovoz berish o'tkazilayotgan ovoz berish byulletenida bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan yuqoridagi talabga rioya qilmaslik ovoz berish byulletenini umuman haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lmaydi (shu bilan birga, boshqa masalalar bo'yicha ovozlar hisobga olinadi).

8.6. Kuzatuv Kengashi a'zolarini saylash aksiyadorlar tomonidan ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalgalashiriladi. Kumulyativ ovoz berishda barcha ovozlar aksiyador tomonidan Bank Kuzatuv Kengashiga bitta nomzod uchun to'liq hajmda berilishi yoki u tomonidan Bank Kuzatuv Kengashiga bir nechta nomzodlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar Bank Kuzatuv Kengashiga saylangan deb tan olinadi.

8.7. Ovoz byulletenida quyidagilar bo'lishi shart:

8.7.1. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi kun tartibidagi masalaning qo'yilishi yoki uning tartib raqami;

8.7.2. masala bo'yicha bank organlariga har bir nomzod uchun "rozi", "qarshi", "betaraf" so'zlari bilan ifodalangan ovoz berish variantlari yoki har bir nomzod bo'yicha ovoz berish variantlari;

8.7.3. ushbu aksiyadorga tegishli ovozlar soni.

8.8. Ovoz berish byulleteni aksiyador yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

8.9. Byulletenlar bo'yicha ovozlarni hisoblashda byulletenda belgilangan ovoz berish tartibiga rioya qilingan va ovoz berishning mumkin bo'lgan variantlaridan faqat bittasi belgilangan masalalar bo'yicha berilgan ovozlarga hisobga olinadi.

8.10. Bankning oddiy va imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega bo'lgan, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ovoz berish uchun qo'yilgan masala bo'yicha ovozlarni hisoblash barcha ovoz beruvchi aksiyalar uchun birgalikda amalgalashiriladi.

8.11. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchiligi tomonidan to'rtdan uch qism ovoz bilan qabul qilinadi (malakali ko'pchilik):

8.11.1. bank ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki bank ustavini yangi tahrirda tasdiqlash;

8.11.2. bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

8.11.3. e'lon qilingan aksiyalarning maksimal hajmini aniqlash;

8.11.4. Kuzatuv Kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha, shu jumladan bankni boshqarish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etishi yuzasidan Kuzatuv Kengashining hisobotlarini tinglash;

8.11.5. yirik bitim tuzish;

8.11.6. affillangan shaxs bilan bitimni ma'qullash;

8.11.7. bankning ustav kapitalidagi davlat ulushini davlat oldidagi mavjud soliq va boshqa qarzlar hisobiga shakllantirish yoki ko'paytirish.

8.12. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining boshqa masalalar bo'yicha qarorlari ovoz berishda ishtirok etuvchi bank ovoz beruvchi aksiyalari umumiyligi sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

8.13. Bank tomonidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimni tuzish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan bankning ovoz beruvchi aksiyalari umumiyligi sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, basharti Bank Kuzatuv Kengashining barcha a'zolari va oddiy aksiyalarga ega bo'lgan barcha

aksiyadorlar manfaatdor tomonlar bo'lsa va (yoki) qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ovozlar soni mavjud emasligi sababli bankning Kuzatuv Kengashi bunday bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin bo'limasa.

8.14. Bunda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga asosli qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar (hujjatlar ilova qilingan holda) taqdim etiladi.

8.15. Sanoq komissiyasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish uchun to'ldirilgan byulletenlardagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

8.16. Ovoz berish natijalariga ko'ra aksiyadorlar yig'ilishining sanoq komissiyasi ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnomada tuzadi va imzolaydi.

8.17. Agar aksiyador ovozga qo'yilgan masala bo'yicha alohida fikrga ega bo'lsa, sanoq komissiyasi bayonnomada tegishli yozuvni kiritishi shart.

8.18. Ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonnomada tuzilganidan va imzolanganidan keyin bayonnomada tuzish uchun asos bo'lgan to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari (shu jumladan haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar) bayonnomada bilan birga tikiladi va Bank arxivida saqlanadi.

8.19. Bank umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxsga ushbu shaxs hisobidan to'ldirilgan ovoz berish byulletenining nusxasini olishga ruxsat beradi.

8.20. Ovoz berish natijalari bayonnomasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasiga ilova qilinadi.

8.21. Ovoz berish natijalari ovoz berish o'tkazilgan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida e'lon qilinadi.

8.22. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ovoz berish natijalari, ularni ushbu qarorlar qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay korporativ axborot yagona portalida, bankning rasmiy veb-saytida o'zbek va rus tillarida e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

9-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasi

9.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilgandan so'ng o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Ikkala nusxa ham umumiy yig'ilish raisi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

9.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

9.2.1. Bank Boshqaruvining to'liq nomi va joylashgan joyi;

9.2.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining o'tkazilish sanasi, vaqt va joyi;

9.2.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida taqdim etilgan bankning ovoz beruvchi aksiyalari soni to'g'risidagi ma'lumot;

9.2.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi;

9.2.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi;

9.2.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi;

9.2.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining raisi (Prezidiumi) va kotibi;

9.2.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlari va savol-javoblari;

9.2.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibida ovozga qo'yilgan har bir masala bo'yicha aksiyadorlarning ovozlari umumiy soni;

9.2.10. ovozga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish natijalari;

9.2.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar.

9.3. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Kuzatuv Kengashini saylash (Bank Kuzatuv Kengashining yangi a'zosini saylash) to'g'risidagi masala ko'rib chiqilsa, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida Bank Kuzatuv Kengashining saylangan a'zosi qaysi aksiyadorning vakili ekanligi va (yoki) Bank

Kuzatuv Kengashining saylangan a'zolaridan qaysi biri mustaqil direktor ekanligi ko'rsatiladi.

9.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kotibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida aks ettirilgan ma'lumotlarning to'liq va ishonchliligi uchun javobgardir.

9.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi ovoz berish natijalari bayonnomasi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish, ovoz berish va bayonnomani imzolash huquqini beruvchi ishonchnomalar bilan birga tikiladi. Ushbu hujjatlar Bank Boshqaruvi tomonidan saqlanishi va istalgan vaqtida aksiyadorlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etilishi kerak. Aksiyadorning iltimosiga binoan unga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bayonnomasining nusxasi beriladi.

10-bob. Masofadan ishtirok etgan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibi

10.1. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha real vaqt rejimida istalgan vaqtida o'z fikrlarini bildirish va qaror qabul qilish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan joyda shaxsan hozir bo'limgan holda unda ishtirok etish, muhokamalarda qatnashish, shuningdek ovoz berishda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha saylov byulletenining elektron shaklini to'ldirish orqali qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradigan Internet tarmog'i orqali masofadan turib (bundan buyon matnda – masofadan turib) o'tkazilishi mumkin.

10.2. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarini o'tkazish xizmati yig'ilishni o'tkazish operatori tomonidan shartnoma asosida masofadan turib taqdim etiladi.

10.3. Masofaviy tadbirlarga taklif etilgan shaxslar ovoz berish huquqisiz aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jarayonini kuzatishi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi materiallari bilan tanishishi mumkin.

10.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda AUYda ishtirok etish uchun ro'yxatga olingan aksiyadorlar va (yoki) ularning ishonchli vakillari ishtirok etishlari mumkin.

10.5. Shu bilan birga, bevosita bankning o'zida yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlarning ovozları masofadan turib ishtirok etgan ishtirokchilarning ovozlariga qo'shiladi va yig'ilishning yakuniy bayonnomasida aks ettiriladi.

10.6. Ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniy huquqqa egaligi saylov byulletenlarini imzolash yoki elektron ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanishi mumkin.

10.7. Yig'ilishni o'tkazish operatori O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxs hisoblanib, u masofadan turib onlayn tarzda tadbirlarning shaffof o'tkazilishini ta'minlash uchun zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega.

10.8. Yig'ilishni o'tkazish operatori quyidagilarni ta'min etadi:

10.8.1. bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida masofaviy ishtirok etish uchun jamiyatning ishtirokchilarni OneID yagona identifikatsiya tizimi (<https://id.gov.uz/>) orqali aniqlash imkoniyati;

10.8.2. ishtirokchilarga onlayn ro'yxatdan o'tish, yig'ilishda qatnashish, elektron ovoz berish byulletenlari orqali onlayn ovoz berish, ovoz berish natijalari bilan tanishish, shuningdek elektron byulletenlar va ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'limalar bilan tanishish imkonini beruvchi elektron platformani taqdim etish;

10.8.3. bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ovoz berish natijalari to'g'risida real vaqt rejimida ma'lumot olish va aksiyadorlar bilan onlayn muloqot qilish imkoniyati;

10.8.4. bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazish paytida maxfiylik va axborot xavfsizligi.

10.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida masofadan turib ishtirok etish uchun aksiyador va (yoki) uning ishonchli vakili OnED yagona identifikatsiya tizimida identifikatsiyadan o'tishi, yig'ilish operatorining elektron platformasida ro'yxatga olinishi (aksiyadorlar yig'ilishda bevosita bankning o'zida ishtirok etgan hollar bundan mustasno) hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi uchun shakllantirilgan va yig'ilishdan uch kun oldin yig'ilish operatori platformasida joylashtirilgan Bank aksiyadorlarining reestriga kiritilishi kerak.

10.10. Bankning arizasiga binoan uning O'zbekiston Respublikasining norezident aksiyadorlariga yig'ilish operatori tomonidan shaxsiy login va parol orqali tizimga alohida kirish huquqi berilishi mumkinki, ular yig'ilishlarda shu login va parol orqali ishtirok etishlari va ovoz berishlari mumkin bo'ladi.

10.11. Yig'ilishda masofadan turib ishtirok etishni istagan vakolatli shaxslar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomani Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidan besh ish kuni oldin bankka elektron shaklda (PDF formatida) taqdim etishlari shart.

10.12. Taqdim etilgan hujjatlarning qonuniyligi va muvofiqligi uchun javobgarlik aksiyadorga yuklatiladi.

10.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida masofaviy ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish OnED yagona identifikatsiya tizimida oldin tasdiqlangan hisob qaydnomasi yordamida amalga oshiriladi.

10.14. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha masofadan turib ovoz berish imkoniyati to'g'risida xabarnoma yuborish vaqtি yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tishning boshlanish vaqtি hisoblanadi.

10.15. Yig'ilish operatorining elektron platformasida byulletenlarning elektron shaklini to'ldirish aksiyadorlar tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi paytida ham, oldindan ham amalga oshirilishi mumkin.

10.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish paytida olingen IDning saqlanishi va undan foydalanish uchun javobgarlik aksiyador zimmasiga yuklatiladi. Aksiyador bank va aksiyadorlarning huquq va manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida o'z IDsining maxfiyligini ta'minlashi shart.

10.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kuzatuv Kengashi a'zolari, ijroiya organi rahbari, bankning ichki audit xizmati a'zolari va tashqi auditori, shuningdek kun tartibi bo'yicha ma'ruzachilar va Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan taklif etilgan shaxslar ham masofadan turib ishtirok etishlari mumkin.

10.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi xabarnoma korporativ axborot yagona portalida, bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek qonun hujjatlari talablariga muvofiq aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.19. Axborot (materiallar) aksiyadorlarga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidan oldin internetda, ovoz berish va yig'ilishni o'tkazish uchun foydalaniladigan yig'ilish operatorining elektron platformasida joylashtirish orqali taqdim etiladi.

10.20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi uchun shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sanadan e'tiboran kun tartibidagi masalalarga masofadan turib ovoz

berish imkoniyati to'g'risida xabar olgan paytdan e'tiboran kun tartibidagi masalalar bo'yicha ro'yxatdan o'tish va ovoz berish huquqiga egadirlar.

10.21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ovoz berishga qo'yilgan barcha masalalar bo'yicha ovozlarni sanash ham oldindan, ham yig'ilish davomida to'ldirilgan elektron byulletenlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

10.22. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yakunlangach, aksiyadorlar ovoz berish natijalari va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi har bir masala bo'yicha qabul qilingan qarorlar bilan yig'ilish operatorining elektron platformasida tanishishlari mumkin.

10.23. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi ovoz berish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bayonna ma'lumotlarni yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolangan qog'oz hujjat shaklida yoki yig'ilish raisining elektron raqamli imzosi bilan imzolangan elektron hujjat shaklida tuzilishi mumkin.

10.24. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi masofadan turib o'tkazilgan taqdirda, ishtirokchilarning qonun hujjatlarida belgilangan barcha huquq va majburiyatlari saqlanib qoladi.

10.25. Yig'ilishlar materiallarining (hujjatlarining) elektron arxivi ularni o'tkazish natijalariga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga uch ish kuni mobaynida topshiriladi.

11-bob. Yakuniy qoidalar

11.1. Ushbu Nizom barcha ilovalar bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab amal qiladi va yangi tahrirda o'zgartirilguniga qadar amalda bo'ladi.

11.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi ushbu Nizom tasdiqlangan va kuchga kirgandan so'ng, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining oldingi qarori bilan tasdiqlangan Turonbank aksiyadorlik tijorat banki Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom bekor bo'ladi.

11.3. Mazkur Nizom ro'yxatga olingan vaqtidan boshlab nizomning barcha avval ro'yxatdan o'tkazilgan tahrirlari, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Korporativ Konsultant

J.B.Botirov

Kelishildi:

Ekspert guruhi rahbari:

**Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinnbosari**

A.T.Tashev